ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2024/ № 1

Termiz – 2024

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 29.01.2024
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
www.philologicalresearch.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV, iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Amonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Kurbanazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Zaynura Qodirova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 29.01.2024
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
www. philologicalresearch.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)

Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)

Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)

Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)

Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)

Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)

Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Нормат Юлдашев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)

Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Бобоназар Муртазаев, ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)

Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)

Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Шоира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Зайнура Кадирова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 29.01.2024
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
www.philologicalresearch.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Amonturdieva, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Zaynura Kadirova, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

SOBIROV ABDULHAY SHUKUROVICH
Globallashuv jarayonlarida o‘zbek tilining tutgan o‘rni 7

FAYZIYEVA XADICHA CHORUYEVNA
Boysun-Sho‘rchi o‘zbek shevalarida
qon-qarindoshlikni bildiruvchi atamalar 11

ШУКУРОВ АБДУЛАХАД АХМАДОВИЧ
Поэтик матнда форс-тожикча
ўзлашмаларнинг қўлланилиши..... 15

SIDDIQOV JAHONGIR NOSURULLOYEVICH
Ichki imkoniyat asosida yasalgan
ergonimlarning lingvistik tadqiqi..... 18

HAQBERDIYEVA SAGINA SHOMUROT QIZI
“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan
dizayn terminlari haqida mulohazalar..... 22

XAYDAROVA DILNOZA
Milliy qandolatchilik terminologiyasiga doir..... 25

BOYNAZAROV ISLOM
Development of some philosophical
terminology in uzbek and english languages..... 28

МУНДАРИЖА

ADABIYOTSHUNOSLIK

КУРБОНОВ АБДУМАЛИК
Навоий ижоди бўйича илмий қарашлар
(Айшеҳан Дениз Абикнинг тадқиқоти мисолида)..... 32

DJURABAYEVA ZAMIRA AXMEDOVNA
Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti va
faoliyati – ibrat maktabi 35

NIGORA ESANOVNA ERKINOVA
Eshqobil Shukur she’rlarida badiiy san’atlar va
ularda leksik birliklarning qo‘llanish xususiyatlari..... 38

PROFESSOR JABBOR OMONTURDIYEV..... 42

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, та'lim. 2024; 1
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

ICHKI IMKONIYAT ASOSIDA YASALGAN ERGONIMLARNING LINGVISTIK TADQIQI

Siddiqov Jahongir Nosurulloyevich,
Andijon davlat chet tillari instituti doktoranti

Tabiat va jamiyatning betakror go'zalligi, rangin-ligi, jozibadorligi ulardagi adadsiz narsa va hodisa-larning muntazam ravishda birining o'rnini ikkinc-hisi egallab turishiga asoslanadi. Bu jarayondan til ham mustasno emas. Til muayyan xalq tafakkuri, ruhiy dunyosi, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hayoti, diniy qarashlari, kundalik turmushi va shu kabilarning yorqin ifodasi sifatida bir joyda to'xtab turmas ko'p qirrali, murakkab jarayondir. Biz – in-sonlar ko'pincha dunyo tillarining tashqi belgilariga qarab baho berishga odatlanib qolganmiz va ular-ning ichki tomonida ro'y berayotgan jarayonlardan aksariyat hollarda bexabar qolamiz. Aslida, tilning butun mohiyati uning ichki tomonida ro'y berayot-gan hodisalarga, tilni tashkil qiluvchi unsurlar o'r-tasidagi chegara bilmas aloqalarga bog'liq bo'ladi. Mutaxassislar hamma vaqt ham buning tagiga yeta olmaydi. Til birliklarining qiziq tomoni shundaki, u til egalari tomonidan oson ajratiladi, lekin lingvist-lar tomonidan qiyin aniqlanadi (1, Nurmonov: 2008; 42). Buni Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan ergonimlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, umumiy ovqatlanish bilan bog'liq korxona nomlarini bildiruvchi ergonimlarni xalq vakillari oddiygina qi-lib *oshxona, restoran* yoki *choyxona* deb atab qo'ya qoladi. Tilshunoslar esa ularning qaysi tamoyil aso-sida nomlangani, qaysi tildan olingani, qanday tar-kibiy qismlardan tashkil topgani, funksional-uslubiy, lingvomadaniy, pragmatik va hokazo xususiyatlari-ni hisobga olib ish ko'radilar. Misol uchun Andijon viloyatidagi *"Al-Hilol", "Asaka bo'yin go'shti", "Ah-madillo", "Archazor shashlik", "Asilbek shashliklari", "Besh yulduz", "Bir zumda", "Burgut", "Buyuk Ipak yo'li", "Burger", "Vostok", "Vladivostok", "Delfin", "Do'lma", "Zaytun", "Lazeez", "M-Pizo" milliy taom-lari, "Ugolok"* kabi oshxona nomlarini yuqoridagi tamoyillar asosida tahlil qiladilar. Bu jarayonda, al-batta, birinchi galda ichki imkoniyat asosida yasal-gan til birliklariga asosiy e'tibor qaratiladi. ""

Mutaxassislarning fikricha, ichki imkoniyat asosi-da yangi til birliklarining hosil qilinishi quyidagi uch usul orqali amalga oshiriladi:

a) ichki resurslar asosida yangi leksik birliklarni hosil qilish;

b) eskirgan, tarixiy manbalarda qayd etilgan lek-sik birliklarga qaytadan "hayot" bag'ishlash;

c) shevaga xos so'zlarni adabiy tilga olib kirish[1].

To'plangan materiallar ichidan ichki imkoniyat asosida yasalgan ergonimlarni ajratib olish hamisha ham oson kechmaydi. Andijon viloyati ergonimlar-ning eng katta guruhni umumiy ovqatlanish shoxobc-halari bilan bog'liq ergonimlar tashkil qiladi. Tadqiqot ishiga ulardan 446 tasi tanlab olindi. Jami ergonim-larning 254 tasi (56,9 foizi) ichki imkoniyat asosida hosil qilingan. Ularning qoliplari quyidagicha:

a) bir asosli sodda, tub ergonimlar 115ta: *"Burgut", "Gumbaz", "Davr", "Diydor", "Do'lma", "Do'stlar", "Zamin", "Zaytun", "Ziyo", "Karvon", "Kos-hona", "Lazzat", "Musaffo", "Muhtasham", "Omad", "Orzu", "Palovjon", "Rustamjon shashlik", "Rayxon", "Sinfdoshlar", "Soy", "Tabassum", "Tandoor", "Tan-ho", "Fayz", "Chinor", "Shoh", "Shukrona", "Fayzul-lo", "Fayz", "O'rdak", "Humoyun", "Asr", "Atlas", "Barlos", "Bo'ston", "Gumbaz", "Javohir", "Kamolot", "Mazza", "Osiyo", "Ruboiy", "Samo", "Sultan", "Uy", "*Хокан*", "Chinor", "Shabboda", "Shodiyona", "Faro-von", "O'tov", "Akbar", "Anor", "Antiqa", "Asr", "Afso-na", "Baraka", "*Век*", "Bisyor", "Vatan", "Gumbaz", "Diyora", "Zaytun", "Zanjabil", "Zamin", "Javohir", "Iris", "Ishtaha", "Kavkaz", "Karvon", "Kecha", "Laz-za", "Malika", "Mazza", "Musaffo", "Mustafo", "Norin", "Capoй", "Sofiya", "Semurg'", "Yulduz", "Xurmo", "Humo", "Andijo", "Baxt", "Visol", "Gulshan", "Istiqlol", "Orzu", "Fayz", "Farovon", "Humo", "Afson", "Bara-ka", "Botir", "Vatan", "Vodiy", "Gap", "Guzar", "Davr", "Diyor", "Doniyor", "Zo'r", "Istiqlol", "Kema", "Kujgon", "Omad", "Tabassum", "Tong", "Cho'ntak", "Shabbo-da", "Shams", "Vodiy", "Ixlos", "Zilol"* (45,2 foiz);

b) bir asosli sodda, yasama ergonimlar 15ta: *"Archazor", "Behizor", "Guliston", "Yong'oqzor", "Oy-din", "Registon", "Sarbon", "Shodlik", "Tolzor", "Tur-kiston", "Uzumzor", "Shohona", "O'rikzor", "O'zbekis-ton", "Chopar"* (5,9 foiz);

c) bir asosli (tarixan yasama) ergonimlar 3ta: *"Marokand", "Movarounnahr-2", "Humoyun"* (1,18 foiz);

[1] Ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Уч жилдик. – 3-жилд. Лексика. – Тошкент: Фан, 1991. – 128 б.

d) arabcha *-al* artikli yordamida yasalgan ergonimlar 3ta: *“Al-Aziz”, “Al-hilol”, “Al-qasr”* (1,18 foiz);

e) morfologik koʻrsatgichli ergonimlar 14ta: *“Asadbek”, “Anasbek”, “Arabboy”, “Ahmadillo”, “Botirbek”, “Doʻstlar”, “Ziyodbek”, “Palovjon”, “Sinfdoshlar”, “Ulfatlar”, “Fayzullo”, “Furqatjon” “Shukronabegim”,* “*Gʻulomjon”* (5,51 foiz);

f) juft asosli ergonimlar 7ta: *“Anda-jon”, “M-Pizo” milliy taomlari, “Non-kabop”, “Choynak-Piyola”, “Hasan-Husan”, “Aka-uka”, “Zoʻr-zoʻr”* (2,75 foiz);

g) son ishtirok etgan ergonimlar 6ta: *“Abar ota choyxona №1”, “1001 kecha”, “№1 Choyxona”, “Ulfatlar-2”, “Oq toʻnlik baliq markazi №1”, “Xartum baliq-2”* (2,36 foiz);

h) qoʻshma soʻzdan yasalgan ergonimlar 32ta: *“Akbarshoh”, “Besh yulduz”, “Bogʻishamol”, “Bir zumda”, “Koʻhinur”, “Tojmahal”, “Uchariq”, “Shahidtepa”, “Shirchoy”, “Oʻzbegim”, “Qumbozor”, “Qoʻshtepasaroy”, “Dilnoz”, “Yorqishloq”, “Oltinsaroy”, “Oqtepa”, “Oqlaylak”, “Diloro”, “Yetti chinor”, “Islomobod”, “Kanalboʻyi”, “Majnuntol”, “Mirpoʻstin”, “Navroʻz”, “Oqshom”, “Charxpalak”, “Shohsaroy”, “Shoh kabob”, “Qoʻshariq”, “Mingbuloq”, “Oltin baliq”, “Oqqayin”* (12,80 foiz);

i) ikki asosli ergonimlar 36ta: *“Archazor shashlik”, “Asilbek shashliklari”, “Rustamjon shashlik”, “Tandir goʻsht”, “Shashlik markazi”, “Qobiljon ota”, “Qoʻshtepa shoʻrva”, “Buyuk Turon”, “Karvon Chinobod”, “Oltin vodiy”, “Ali kafe”, “Behzod kafesi”, “Eski shahar”, “Maydon sharbat”, “Muhammad hoji”, “Muhammad Ali”, “Toshkent osh”, “Abdumalik samovar”, “Abdushukur ota”, “Akromjon ota”, “Anvar ota”, “Beshinchi koʻcha”, “Yettinchi koʻcha”, “Mamajon buva”, “Oxunjon aka”, “Subhidam xolis”, “Sherxon ota”, “Fozil hoji”, “Bogʻdod baliq”, “Kujgon baliq”, “Sohil baliq”, “Xartum baliq”, “Hamidjon baliq”, “Maydon somsa”, “Andijon muzqaymogʻi”, “Anjan muzqaymogʻi”* (14,17 foiz);

j) uch asosli ergonimlar 15ta: *“Asaka boʻyin goʻshti”, “Buyuk Ipak Yoʻli”, “Uygʻur milliy taomlari”, “Ikki doʻst kafesi”, “Orom joʻja kavob”, “Xokan” tantanalar saroyi, “Bobochek milliy choyxonasi”, “Yangi Bogʻi Boʻston”, “Gulshan baliq markazi”, “Goʻzal malika orzusi”* (5,9 foiz);

k) toʻrt asosli ergonim 1ta: *“Habibullo ota milliy taomlari”* (5,51 foiz);

l) izofali ergonimlar 4ta: *“Bogʻi Eram”, “Bogʻi Boʻston”, “Bogʻishamol”, “Obi rohat”* (5,51 foiz);

m) abbreviaturali ergonimlar 2ta: *“Uz diyor”, “Uz kabob”* (0,78 foiz);

n) gap shaklidagi ergonimlar 1ta: *“Oʻzimiz bilamiz”* (0,39 foiz).

Mazkur makro koʻlamni 8ta mikroguruhga boʻlib oʻrganish maqsadga muvofiq. Oshxona bilan bogʻliq ergonimlar 67 ta; restoran bilan bogʻliq ergonimlar 75 ta; kafe bilan bogʻliq ergonimlar 109 ta; choyxona bilan bogʻliq ergonimlar 72 ta; toʻyxona bilan bogʻliq ergonimlar 25 ta; baliqxona bilan bogʻliq ergonimlar 22 ta; tamaddixona bilan bogʻliq ergonimlar 25 ta; burger bilan bogʻliq ergonimlar 25 ta; yevropa taomlari bilan bogʻliq ergonimlar 18 ta; barlar bilan bogʻliq ergonimlar 10 ta; yetkazib berish bilan bogʻliq ergonimlar 3 ta; muzqaymoq bilan bogʻliq ergonimlar 17 ta; jami 468 ta, shundan 261 tasi ichki imkoniyat asosida yasalgan ergonimlardir. Foiz hisobida oladigan boʻlsak – 55,7 foiz.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar, iqlim, joy bilan bogʻliq ergonimlar oshxona, choyxona, toʻyxona nomlarida koʻp uchraydi. Choyxona nomlarini ifodalovchi 72 ta ergonimdan 68 tasi (93 foizi), toʻyxona nomlarini ifodalovchi ergonimlardan 24 tasi (96 foiz) oʻz qatlamga oid soʻzlardir.

Ergonimlarning etimologik tarkibi rang-barang. Masalan, oshxona bilan bogʻliq 67 ta ergonimning 3 tasi inglizcha (4,2 foiz), 2 tasi ruscha (2,6 foiz), 2 tasi arabcha (2,6 foiz), 1tasi turkcha (1,3 foiz), 1ta oʻzbekcha leksik birlik inglizcha transliteratsiyada «*Tandoor*» shaklida berilgan (1,3 foiz), 59 tasi oʻzbekcha (88 foiz). Demak, boshqa guruhlarga qaraganda oshxona bilan bogʻliq ergonimlarda ichki imkoniyat asosida nom yasalishi ustuvorlik kasb etadi. Mazkur guruhning yadrosida turgan *oshxona* leksemasiga “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da shunday ta’rif berilgan:

OSHXONA 1 Ovqat tayyorlash uchun moslangan maxsus xona yoki bino. **2** Umumiy ovqatlanish muassasasi.

Oshxona bilan bogʻliq ergonimlarni nomlashda oʻzbek tili ichki imkoniyatlarining barcha usullarini – ergoantroponimlarni: *“Akbarshoh”, “Ahmadillo”, “Asilbek shashliklari”, “M-Pizo” milliy taomlari, “Rayxon”, “Rustamjon shashlik”, “Habibullo ota milliy taomlari”, “Shukronabegim”, “Fayzullo”, “Qobiljon ota”, “Humoyun”;* ergotoponimlarni: *“Gumbaz”, “Soy”, “Shahidtepa”, “Qoʻshtepa shoʻrva”, “Qumbozor”*; ergofitonimlarni: *“Archazor shashlik”,* «*Tolzor”, “Chinor”, “Zaytun”;* ergozoonimlarni: *“Burgut”, “Delfin”, “Oʻrdak”, “Tulpor”,* ergokosmonimlarni: *“Al-Hilol”, “Beshyulduz”;* ergoistorizmlarni: *“Buyuk Ipak Yoʻli”, “Karvon”, “Koʻhinur”, “Marokand”, “Tojmahal”*; ergopoetizmlardan: *“Bir zumda”, “Koshona”, “Tanho”, “Choynak-Piyola”, “Oʻzbegim”* va hokazolarni uchratish mumkin.

Guruhning markaziy birliklaridan sanalgan *restoran* leksemasi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da shunday izohlangan:

RESTORAN [fransuzcha *restaurant – yedirib-ichirib, tetik qiluvchi, quvvat beruvchi*] **1** Mijozlarga yuqori darajada xizmat koʻrsatadigan, musiqa eshi-

tib, raqs tushish, qimmatli yegulik va ichimliklarga buyurma berish mumkin bo‘lgan umumiy ovqatlanish korxonasi. **2** Ana shunday korxona joylashgan bino[1].

Rus va yevropa tillarida restoran nomlarini bildiruvchi ergonimlar restoronim atamasi ostida keng tadqiq etilgan. “Ресторанный нейминг: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты” mavzusida nomzodlik ishini bajargan Xoang Txi Xong Chang Moskva shahridagi 7000dan ortiq ovqatlanish muassasalari nomlarini to‘plagan va ular ichidan restoran nomlarini ajratib olib tadqiqqa tortgan. Uning fikricha, *restoronim* – umumiy ovqatlanish korxonalariga tegishli nom, ergonimlarning turlaridan biridir. Nomenklaturasining xilma-xilligi, xorijiy nomlardan keng foydalanish, nomlarning grafik modifikatsiyalashuvi ularga xos bo‘lgan eng muhim xususiyatlar sanaladi. Dissertant restoronimlarnimng 10ta turini va ularning yasalishidagi plyuralizitsiya, arxaik so‘zlardan foydalanish, transliteratsiya, gibridatsiya, kodografikatsiya, punktualizatsiya, so‘zning grafik ko‘rinishini o‘zgartirish, grammatik reduplikatsiya, segmentatsiya, xorijiy unsurlar va internet imkoniyatlaridan foydalanish, indeksiya, qisqartish kabi 13 ta tamoyilni ko‘rsatgan: toporestoronim (*“Aleksandriya”, “Braziliya”, “Xalong”, “Vendome”);* antrorestoronim (*“Marko Polo”, “Rasputin”, “Fu Syan” “Bowie”*); ideorestoronim (*“Mimino”, “Deti Rayka”, “Camera Obscura”*); kriptorestoronim (*“Gulliver”, “GROOT”, “Tin Woodman”*); pragmatorestoronim *(“Kon-Tiki”, “VEUVE CLICQUOT”*); teorestoronim (*“Dionis”, “Shakti”*); kosmorestoronim (*“Aldebaran’”, “Saturn”*); geortorestoronim (*“Tatyanin den”, “Noel”, “Navruz”*) va h.k. ajratib ko‘rsatgan[2].

Bundan Andijon viloyatidagi restoran nomlari ham mustasno emas. Ular ichida ichki imkoniyat asosida hosil qilingan toporestoronimlar: *“Bo‘ston”, “Gumbaz”, “Chinobod”, “Osiyo”, “Andijon”,* “Хоқан”; antrorestoronimlar: *“Dilya”, “Javohir”, “Sultan”, “Sultan Ahmed”*; kriptorestoronimlar: *“Buyuk ipak yo‘li”, “Buyuk Turon”, “Ko‘hinur”, “Ruboiy”, “Tojmahal”*; fitorestoronimlar: *“Archazor”, “Uzumzor”, “Chinor”, “O‘rikzor”*; etnorestoronimlar: *“Barlos”*; kosmorestoronimlar: *“Samo”, “Shabboda”;* poetorestoronimlar: *“Mazza”, “Oltin vodiy”* va h.k.lar uchraydi.

Tadqiqot ishiga jalb etilgan muzqaymoq bilan bog‘liq 17 ta ergonimlarning 10 tasi inglizcha (58,8 foiz), 1tasi arabcha (5,8 foiz), 1tasi ruscha (5,8 foiz), leksik birlik sanaladi, 5 tasi: *“Andijon muzqaymog‘i”, “Anjan muzqaymog‘i”, “Zilol”, “Chopar”, “O‘zimiz bilamiz”* (29,6 foiz) ichki imkoniyat asosida hosil qilingan.

Oshxona nomi bilan bog‘liq ergonimlarda zamonaviylik, tezkorlik kuzatiladi. Ularni semik jihatdan tahlil qilish ergonimlarning lisoniy belgilarini oydinlashtirish uchun xizmat qiladi. Masalan, *“Asl 80 Bek”* ergonimi *asl+sakson+bek* komponentlaridan tashkil topgan bo‘lib, 1-va 3-komponentlarda mahsulotga va oshxona egasiga ishora mavjud bo‘lsa, 2-komponent – 80 (sakson)da faqat Andijon ahliga tushunarli bo‘lgan ma’no bor. Bobur shoh ko‘chasidan Katta halqa yo‘liga 80 metrlik trassa chiqarilgan bo‘lib, mazkur oshxona shu yo‘l yoqasiga joylashgan bo‘lib, unda *“80 metlik yo‘l yoqasida joylashgan”* degan sema mavjud. Masalan, o‘zbek brend taomi sanalgan *osh (palov)*ning *“Toshkent oshi”, “Toshkent to‘y oshi”, “Qovurma palov”, “Andijon devzira oshi”, “Samarqand zig‘ir oshi”, “Payli osh”, “Kovartokli palov” (tok oshi) “Ilvasin palov”, “Qazili palov”, “Sofaki palov” (so‘fi osh), “Suzma palov”, “Ivitma palov”, “To‘g‘rama palov”, “Behili palov”, “Mayizli palov”, “Qorma palov”* kabi 200ga yaqin turi bor[3] va ularning har biri o‘ziga xos ergonim sanaladi. Mazkur nomlar uchun asos vazifasini o‘tayotgan *palov* komponenti fors tilida: ولپ [*polov*]; hind tilida: पुलाव [*palāu*]; sanskrit tilida: पुलाक [*pulāka*] *“dimlangan guruch”*, qozoq tilida: *palau*; qirg‘iz tilida: *paloo, ash*; qrim-tatar tilida: *pilâv;* tojik tilida: *oshi palov*; tatar tilida: пылаw, *pilau;* usmonli turk tilida: *’pilav’*; turkman tilida: *palow*; uyg‘ur tilida*: polu* deb ataladi[4].

Andijonda asosan ichki imkoniyat asosida hosil qilingan ош leksemasi qo‘llanadi va u ishtirokida yasalgan *“Toshkent oshi”, “Toshkent to‘y oshi”, “Samarqand zig‘ir oshi”, “Devzira osh”* kabi ergonimlar mavjud.

“Andijoncha (anjoncha) palov” “Devzira osh” deb ham yuritiladi. *Devzira* leksemasi K.Mahmudov tomonidan *“deg” – qozon, “zera” – bosar*, ya’ni *“qozon-bosar”* yoki *“qozonda ko‘payar”* tarzida izohlangan[5], lekin leksema tarkibidagi *dev* va *zira* “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da shunday izohlangan:

“**DEV** [forscha: *jin, iblis, yovuz, zolim*] **1** mifologiyada Ertak va xalq dostonlarida shoxli, dumli, benihoyat ulkan odam qiyofasida tasavvur etiladigan, ezgulikka qarshi kurashuvchi xayoliy mahluq, yovuzlik timsoli. **2** *ko‘chma:* davangirday, beo‘xshov, qo‘pol gavdali” ma’nolarini bildirishi aytilgan[6].

R.Mahmudov o‘zining “O‘zbek tilida avestizmlar”

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – 3-жилд.– Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б. 174-, 379.

[2] Хоанг Тхи Хонг Чанг. Ресторанный нейминг: структурно-семантический и коммуникативно-прагматический аспекты: автореф. канд. дисс. филол. наук. – Томск, 2018. – С. 1-16.

[3] Қаранг: Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари. – Тошкент: Меҳнат, 1989. – Б. 199-217.

[4] Юқоридаги манба.

[5] Маҳмудов К. Ўзбек тансиқ таомлари, 202-бет.

[6] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – 1-жилд.– Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – Б. 585-586.

nomli monografiyasida *dev* leksemasining *iloh, ilohiy, ma'bud, iblis, shayton, ishonnchsiz, firibgarlikdan, aldovdan iborat, o't, yovuz, yovuz kuch, bezovta, telba, befarq* kabi 30ga yaqin ma'nolarini sanab o'tgan. *Udivlyatsya, udivleniye, udivitelno* leksik birliklarining *u+diva* asosida yasalganini aytib, *udivitelennaya krasota* birikmasini *ilohiy go'zallik* tarzida izohlab ketgan[1]. Balki, *devzira* tarkibidagi *dev ilohiy, ajoyib* degan ma'nolarni ham anglatar.

Zira leksemasiga izohli lug'atda shunday izoh berilgan:

ZIRA [forscha: *xushbo'y o'simlik urug'i*] Ziradoshlar oilasiga mansub ko'p yillik xushbo'y ziravor o'simlik va uning ovqatga ishlatiladigan urug'i[2].

Fikrimizcha, *devzira* leksik birligi *dev* va *zira* leksemalarining qo'shilishidan hosil bo'lgan. Bunda shaklga nisbat berilib, devning kattaligi e'tiborga olinib, *ziraga o'xshash katta guruch* ma'nosi yaratilgan. Devzira guruchining shakli zira o'simligining urug'iga o'xshaydi[3]. Buni "O'zbek tilining izohli lug'ati"dagi *devzira* leksemasiga berilgan izoh ham tasdiqlaydi.

DEVZIRA [forscha: *katta ziraday*] Mahalliy jaydari sholidan olinadigan yirik, suv ko'taradigan guruch[4].

"Olot somsasi", "Buxoro somsasi", "Tomchi somsa", "Qapaq somsa", "Jizzax somsa" (kosa somsa), "Namangan shashliklari", "G'ijduvon shashliklari", "Polvon kabob", "Cho'zma lag'mon", "Ipak lag'mon", "Uyg'ur lag'mon", "Beshbarmoq", "Beshpancha" kabi ergonimlarda ham shu holatni kuzatish mumkin.

Xulosa qilib aytganimizda, ichki imkoniyat asosida hosil qilingan ergonimlar onomastik qatlamning eng yorqin, eng rangin qatlamini tashkil qiladi. Ularni lingvistik jihatdan tahlil qilish yurtdoshlarimizning bugungi turmush tarzi, tafakkur ko'lami, dunyoqarashi, madaniyati, ma'naviyati, milliy qadriyatlarga bo'lgan sadoqati va shu kabi fazilatlari haqida tasavvur qilish imkonini beradi.

Resume: the article expresses opinions on the creation of ergonisms associated with the name of public catering establishments (restaurants, kitchens, cafes) in the Andijan region based on internal capabilities.

Резюме: в статье высказаны мнения о создании эргономики, связанной с названием предприятий общественного питания (ресторанов, кухонь, кафе) Андижанской области, исходя из внутренних возможностей.

[1] Маҳмудов Р. Ўзбек тилида авестизмлар. – Хива: Хоразм Маъмун академияси, 2020. – Б. 90-99.
[2] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – 2-жилд.– Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – 153-бет.
[3] https://ru.wikipedia.
[4] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – 1-жилд.– 586-бет.